XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 22 - iyul VI-50-79-3-48-K/23 Zomin tumani hokimligi

Zomin tumani 2023-yil 2-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan “Temir daftar” jamg‘armasiga mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 250-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Zomin tumani 2023-yil 2-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov)ga mahalliy byudjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin va 2023-yil 2-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan 15 foizi “Temir daftar” jamg‘armasiga ajratish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (E.Darvishev)ga ajratilgan mablag‘ni moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ochilgan “Temir daftar” jamg‘armasiga o‘tkazib berilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining maxalliy budjet, iktisodiy isloxotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi S.Ergashev hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**